

**ILM  
SARCHASHMALARI**

**ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL**



**URGANCH  
DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**2023  
12/2**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

## **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**12/2.2023**

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal  
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

**Urganch – 2023**

<b>Sodiqova Yulduz Furqatovna.</b> Talabalarni xorijiy til ko'nikmalariga o'rgatishda baholash mezonlarining ahamiyati.....	94
<b>Ziyayev Adxamjon Nisolmuxammadovich.</b> Pedagogik konfliktlar va ongli intizom tarbiyasi.....	97
<b>Rahimova Shoira Adilbekovna.</b> Kaykovusning pedagogik ta'limoti asosida bo'lajak o'qituvchi shaxsini tarbiyalash muammolari.....	100
<b>Rozimova Yorqinoy Yuldashevna.</b> Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning dolzarb muammolari va uni rivojlantirish yo'llari.....	102
<b>Abdullaeva Ma'rifatxon.</b> Darslarni loyihalashda muammoli masalalardan foydalanish.....	104
<b>Mirzayev Mutalib Jo'rayevich.</b> Ma'naviy tafakkur jamiyat taraqqiyotining asosiy hamkorlik mezoni sifatida.....	107
<b>Abdullaeva Lola Takhirova.</b> Technology for Fostering Sociolinguistic Competency in University.....	110
<b>Akhmadjonov Khasan.</b> Students' Performance in National and European Groups.....	114
<b>Ashurov Marufjon Abdumutalibovich.</b> Use of Technologies of Computer Music Programs in the Pedagogy of Teaching Music Lessons.....	117
<b>Matyakubova Xolida Maksudovna.</b> Preparing English Language Specialization Students for Teaching through Microteaching in English Methodology Lessons.....	119

## ILMIY AXBOROT

<b>Sapayev G'ulomjon Baxtiyarovich.</b> Davlat fuqarolik xizmatiga halol va professional kadrlarni tanlashda meritokratiya tamoyilining ahamiyati.....	123
<b>Munavvarova Musfira.</b> Turkiy xalqlar ma'naviyati tarixida O'rxun-Enasoy yodgorliklarining ahamiyati.....	126
<b>Nurjonov Oybek.</b> Sohalararo xoslangan etnografizmlarning semantik qamrovi.....	128
<b>Saparbayeva Gulandam Masharipovna, Ortiqbayeva Sabohat Qudratovna.</b> Og'zaki muloqot akti leksik sifat aspektini ta'minlovchi tamoyillar, ma'no munosabatlari va til birliklari.....	131
<b>Jumaniyazov Atabay Jumaniyazovich, Allaberganova Firuza Ibraximovna.</b> So'z birikmalarining qo'shma so'z-larga aylanish tendensiyalari.....	133
<b>Djumaniyazova Zilola.</b> Ingliz tilidagi antropotsentrik maqollarda gender stereotiplarining namoyon bo'lishi.....	137
<b>Abdulboqiyeva Oydina Abdurashit qizi.</b> Shaxsni bildiruvchi axborot texnologiya terminlari.....	141
<b>Tursunbayev Baxtiyar Turabayevich.</b> Ramziy vositalar tarjimalarining pragmatik va kognitiv-lingvistik xususiyatlari.....	143
<b>Xabibulloyeva Gulchehra Komiljonovna, Xo'shboqova Nasiba Nurqobil qizi, Murodova Sevara Zoir qizi.</b> O'zbek va ingliz tillarida geografik atamalar va toponimlarning tarjimasini.....	149
<b>Berdiyeva Nazira Uralovna.</b> "Lolazor" romanida badiiy tasvir va psixologik talqin teranlashuvi.....	152
<b>Kurbanova Saida.</b> Shukrullo lirikasida tabiat poetikasi va lirik qahramon tasviri.....	154
<b>Naimova Aziza Muxammadovna.</b> Hikoya qilish texnikasining tarixiy inversiya mohiyatini tushunishdagi roli.....	157
<b>Shamiyeva Oybahor Ravshanovna.</b> Sharq mutafakkirlari asarlarida rahbarlik va boshqaruv muammolarining talqini.....	160
<b>Ismoilova Dilfuza Abduljalilovna, Berdiev Nor Orziyevich, Saparbayeva Erkinoy Davlatbayevna.</b> Jadid maktablarida chet tillar targ'iboti.....	163
<b>Sultanova Nargiza.</b> Talabalarining ingliz tilidagi yozish ko'nikmalarini oshirish usullari.....	166
<b>Кучкарова Гулноз Рахмоновна.</b> Архитектура и дизайн мавзолея Абу Хафса Кабира.....	169
<b>Краева Вероника Юрьевна, Худайберганов Шухрат Эркинович.</b> Лингвокультурологическое описание идиом с общим значением «семья» (на материале русских говоров Алтая).....	172
<b>Маматова Шахноза Нематжоновна.</b> Ориентализмы в русскоязычной публицистике Узбекистана.....	176
<b>Кененбаев Еркин Тойлибаевич.</b> Речевые жанры коммуникации.....	180
<b>Турумова Тамара Хакимовна, Танрибергенова Гулора Адамбаевна.</b> К вопросу об эквивалентности перевода.....	183
<b>Xatamova Ziyoda.</b> Litota: English and Uzbek Linguopragmatic and Linguological Study.....	186
<b>Zairova Nargiza Yuldashevna.</b> Reflection of Various Aspects of the Functioning and Changes of Gender Relations in English Society in the Literature of the 19 <sup>th</sup> Century.....	189
<b>Usmonova Zarina Habibovna.</b> "Current Space" as a Masterpiece of Science Fiction by Isaac Asimov.....	192
<b>Shaximardonova Baxtigul Xo'shboqovna, Ibrohimova Gulmira Abdusalom qizi.</b> Technologies for Improving the Moral Qualities of Citizens of Andragogic Age Formed in Society.....	195

*Hisobli yaratgan dono tabiat.*

*Yaxshiki, odamning kuch-quvvatini  
Bel-u oyog'idan avval oladi.  
Bo'lmasa, bu oyog' keksayganingda  
Seni qay yo'llarga sudrab qolardi.<sup>1</sup>*

Xulosa qilib aytganda, Shukrullo tabiatni sevadi, uni o'ziga sirdosh deb biladi, shuning uchun uning falsafiy-intellektual lirikasida peyzaj tasvirlari, tabiat detallari keng planda aks ettiriladi. Shukrullo she'rlari va dostonlarida tabiat manzaralarini mahorat bilan yaratar ekan, peyzaj shoir uchun psixologik tasvirni teranlashtiruvchi muhim badiiy vosita sifatida maydonga chiqib, shartli timsolli obrazlar, an'anaviy motivlar uning she'riyatining asosiy atributiga aylanadi.

**Naimova Aziza Muxammadovna (Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi; e-mail:  
[aziza.naimova2020@mail.ru](mailto:aziza.naimova2020@mail.ru))**

### **HIKOYA QILISH TEXNIKASINING TARIXIY INVERSIYA MOHIYATINI TUSHUNISHDAGI ROLI**

**Аннотация.** *Ushbu maqolada tarixiy inversiya xususiyatlari va usullari, hikoya qilish texnikasi turlari hamda ularning vaqt inversiyasiga ta'siri va bog'liqligi, asar poetikasi, yozuvchining parallel davr chiziqchlari mohiyatini kitobxonga yetkazib berish uslub-mahorati mavzulariga bag'ishlangan.*

**Аннотация.** *В данной статье затрагиваются темы особенностей и методов исторической инверсии, типов повествовательных приемов, их влияния и зависимости от инверсии времени, поэтики произведения, стиля и умения писателя донести до читателя суть инверсии времени.*

**Annotation.** *This article is dedicated to the topics of historical inversion properties and methods, types of storytelling techniques and their influence and dependence on time inversion, the poetics of the work, the style-skill of giving the essence of the writer's parallel period to the reader.*

**Калит so'zlar:** *tarixiy inversiya, parallellik, retrospeksiya, prospeksiya, fleshbek, oldinga qaytish, kelajak, o'tmish, hozir.*

**Ключевые слова:** *историческая инверсия, параллелизм, ретроспектива, перспектива, воспоминание, возврат вперед, будущее, прошлое, сейчас.*

**Key words:** *historical inversion, parallelism, retrospection, prospectus, flashback, flash forward, Future, Past, now.*

Hikoya texnikasi (adabiy badiiy hikoyalar orasida adabiy texnika, adabiy vosita yoki badiiy vosita sifatida tanilgan) hikoya yaratuvchisi o'zi xohlagan narsani yetkazish uchun foydalanadigan bir necha o'ziga xos usullardan biri bo'lib, hikoya qilishda qo'llaniladigan strategiya. Tinglovchilarga ma'lumot yetkazish, ayniqsa, hikoyani rivojlantirish uchun, odatda, uni yanada to'liq, murakkab yoki qiziqarli qilish uchun hikoya tuzilmasini rejalashtirish va yaratish usulidir. Ba'zi olimlar ushbu uslubni hikoya qilish usuli deb ham atashadi, ammo bu atama tor ma'noda hikoyani aytib berish uchun sharhdan foydalanishning o'ziga xos uslubiga ham tegishli bo'lishi mumkin. Hikoya texnikasi barcha hikoya asarlarida mavjud bo'lgan hikoya elementlaridan ajralib turadi. Hikoya texnikasi badiiy asar qismlarini tashkil etuvchi komponentlarini tahlil qilishni anglatadi: voqea, xarakter, nuqtayi nazar, kayfiyat yoki atmosfera kabi hikoya elementlari, ramziylik, uslub, mavzu va boshqalar. Boshqacha qilib aytganda, bu adabiy asarda mujassamlangan mavzularni muallif tomonidan kitobxonga yetkazib berish imkonini beradigan tarzda taqdim etilgan voqealarning mantiqiy ketma-ketligidir. Shuningdek, ijodkor qalbi tubidagi hech kimga ayta olmaydigan muammolarni qay tarzda hal qilish usuli desak, adashmaymiz.

Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, avtor kitobxonga o'z asari bilan birga uning shaxsiyatiga xos o'z-gacha bir uslub, qobiliyat va mahoratni namoyon qila oladi. Chunki muallif yaratilq davrida ma'lum bir texnikani qo'llashdan maqsad hamda undan kutilgan natija juda puxta rejalashtiriladi. Shu sababli adabiy makondagi barcha asarlarda ham ushbu texnikalar uchramaydi. Xuddi shunday qalami o'tkir yozuvchilardan biri bu Salman Rushdi bo'lib, uning "Midnight's children" romani adabiy texnikalar va stilistik vositalarga boyligi, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-sotsiologik fakt bog'liqliklari, muammolar hamda ularga yechimlarning sabab-oqibat, chiziqli bo'lmagan hikoya tuzilishlari orqali kitobxonga yetkaza olishi bilan alohida o'rin egallaydi. Shu o'rinda, romandagi diniy yondashuvlar: islom, xristian va hind dinlariga doir ko'plab

<sup>1</sup>Шукрулло. Кексалик. Танланган асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Тошкент, "Шарк", 2009, 94-бет.

hikoya, qissa, mif, hadislarning qo‘shimcha ma’lumot sifatida keltirilishi muallifning nafaqat dunyoviy balki diniy bilimlarining yetukligidan dalolat beradi.

Dastavval, roman sarlavhasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, “Midnight’s children”, ya’ni, Yarim tun bolalari deb nomlanishining o‘zi ham asar markazidagi g‘oyaning qaysidir ma’noda tor tushunchasi sifatida namoyon qilinishi, yarim kechasi bizga ma’lum bir vaqt g‘oyasi haqida o‘ylashga imkon berishi, bu alohida lahza, teskari mayatnik kabi beqaror muvozanat, ya’ni, bosh qahramon aynan yarim tun soat roppa-rosa 12:00da dunyoga kelganligi, unga hamroh bo‘lib, bir qancha bolalarning ham shu vaqt oralig‘ida tug‘ilganliklari va ularning barchasi o‘ziga xos Olloh tomonidan in’om etilgan g‘ayrioddiy sehr kuchiga egaligining o‘zi ham hikoya texnikasining muallif tomonidan juda mohirona foydalanilganligidan dalolatdir. Bolalarning noodatiy kuchga egaligi bu romanda sexrli realizmning ayni markaziy g‘oya ekanligi va roman sarlavhasi ham shu texnika timsoli kabi nomlanishi asar salohiyatiga yanada ta’sir ko‘rsatdi.

Muallifning har tomonlama dunyoqarashi kuchliligi, uning asar davomida nafaqat sehrli realizm, balki fleshbek-fleshforvard, ya’ni, oldinga yoki orqaga siljish, ong oqimi, chiziqli bo‘lmagan hikoya tuzilishlari, hikoyadagi uzilishlar, ishonchsiz hikoyachilar, parallel vaqt jadvallari kabi texnikalarning asar mohiyatini yanada chuqur namoyon etish uchun xizmat qilayotganligini anglash kifoya. Butun roman parallel vaqt jadvallari strukturasi asosida yaratilgan, asar qahramoni Salim Sinay bo‘lib, barcha voqealar tafsiloti uning tug‘ilishi, hayoti, oilasi, do‘stlari, yartim tunda u bilan birga tug‘ilgan hamroh o‘rtoqlari, uning qiyinchiliklari, muammolari, erishgan yutuqlari, kamchiliklari, xatolari, undan keyingi kelajagi sanalmish avlod uning farzandi haqidagina emas, balki uning o‘tmishi hisoblanmish bobosi Adam Aziz bilan bog‘liq ko‘plab hodisalar ham bayon qilinadi. Asardagi parallel vaqt strukturasi Rushdi ikki xarakter Salim Sinay hamda Adam Aziz atrofida birlashtirgan. Asar protagonist Salimning dunyoga kelishi bilan boshlanib, shu kun tasviri, o‘sha kunning aniq sana, vaqt va makon ko‘rsatkichlari, shuningdek, bu kun juda noodatiy Hindistonning mustaqillikka erishgan kuni sifatida nishonlanilayotganligini Salimning o‘z nutqidan sezish mumkin.

I was born in the city of Bombay ...once upon a time. No, that won’t do, there’s no getting away from the date: I was born in Doctor Narlikar’s Nursing Home on August 15th, 1947. And the time? The time matters, too. Well then: at night. No, it’s important to be more ... On the stroke of midnight, as a matter of fact. Clock-hands joined palms in respectful greeting as I came. Oh, spell it out, spell it out: at the precise instant of India’s arrival at independence, I tumbled forth into the world. There were gasps. And, outside the window, fireworks and crowds. A few seconds later, my father broke his big toe; but Ms accident was a mere trifle when set beside what had befallen me in that benighted moment, because thanks to the occult tyrannies of those blandly saluting clocks I had been mysteriously handcuffed to history, my destinies indissolubly chained to those of my country. For the next three decades, there was to be no escape. Soothsayers had prophesied me, newspapers celebrated my arrival, politicians ratified my authenticity. I was left entirely without a say in the matter. I, Saleem Sinai, later variously called Snotnose, Stainface, Baldy, Sniffer, Buddha and even Piece-of-the-Moon, had become heavily embroiled in Fate – at the best of times a dangerous sort of involvement. And I couldn’t even wipe my own nose at the time.<sup>1</sup>

Ushbu hikoyada Salim Sinayning tug‘ilishi hamda mustaqillik kuni xursandchiliklari xotira-eslash yordamida retrospeksiya usulini kuzatish mumkin. Ya’ni, hikoyachi ma’lum bir yoshga kirgandan so‘ng barcha voqealarni so‘zlab bermoqda (boshqa shaxs fikri orqali bo‘lsa-da), aynan uning tug‘ilgan kuniga qaytishi retrospeksiyadir. Qahramon eslash orqali o‘tmishga qaytmoqda. Hikoya qiluvchi Salim Sinay shu paytda chaqaloq bulsada adibning o‘ziga xos uslubi aynan uning tilidan tasvirni kitobxonga yetkazmoqda, garchi u bu holat va tasvirlardan boxabar bo‘lishga tabiatan ega bulmasa-da, barcha his-hayajonlar orqali tug‘ilgan kuni va mustaqillik shodiyonasi tasviri ko‘rsatilmoqda. Akademik Lixachovning fikriga ko‘ra, agar asarda muallif muhim rol o‘ynasa, agar muallif xayoliy muallifning obrazini, hikoyachining obrazini, hikoyachining obrazini badiiy rejaning o‘ziga xos “tarjimoni” sifatida yaratsa, u holda sujet vaqtining tasviriga muallifning vaqt tasviri, ijrochining vaqt tasviri qo‘shiladi (turli xil kombinatsiyalarda).<sup>2</sup> Professor fikrining tasdig‘i asosida Rushdi romanda hikoyachi obrazi, aniqrog‘i, shu obrazni bosh qahramon Salim orqali yaratdi. Aynan uning vaqt tasviri turli tezliklarda: ba’zan sekin, ba’zan juda shiddat bilan namoyon bo‘ldi.

Muallif 1947-yil 15-avgust voqealarini o‘zgacha bir ruhda tasvirlar ekan, asar voqealari birdaniga oldinga, ya’ni, 1915-yil sanalariga sakraydi va muallif shu o‘rinda ustalik bilan fleshbek texnikasi orqali Salimning tug‘ilganligi, mustaqillik shukuhi, maydonlardagi olomon va ularning mushakbozliklari, gazeta

<sup>1</sup> Rushdie Salman. *Midnight’s children*. L., “Penguin books”, 1991, p. 2.

<sup>2</sup> Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. М., “Наука”, 1979, с. 209.

reportyorlarining, bashoratchi va siyosatchilarning bashorat hamda tasdiqlashlariga qaramasdan, sodir bo'layotgan xush-xursandchilik lahzalari Kashmirdagi bomdod namoz vaqtiga o'zgartirildi. Muallif tomondan fleshbek texnikasini qo'llanishi voqealar sujetini 32 yil oldinga siljitdi va xotirlash orqali retrospektiya usulidan foydalanildi. Shu o'rinda aytish joizki, Rushdi romanning boshdan oxir parallel vaqt strukturasi qo'llaganligini anglash mumkin, ya'ni, ushbu struktura orqali muallif barcha voqealar, muammo hamda yechimlar ikki shaxs-ikki avlod, bobo va nevara artofida aylanayotganligi va yechim topayotganligini kuzatish mumkin. Mixail Baxtin ta'kidlaganidek, tarixiy inversiyaning yuzakiroq ta'rifiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu nimaiki o'tmishda bo'lib o'tgan deya tasvirlansa, aslida, kelajakda ro'y berishi mumkin yoki kelajakda ro'y beradi. Mohiyatan, u o'tmish voqeligi emas, kelajakning maqsadi, burchi o'laroq, namoyon bo'ladi... Shu tariqa, kelajak hisobidan bugun, xususan, o'tmish boyib boradi. Reallik quvvati va ishonchliligi, haqqoniyliги faqat hozirgi hamda o'tgan zamonga tegishli bo'ladi: "bor" va "bo'lgan"...<sup>1</sup> Avtor ham o'z ijodi mahsulini yaratar ekan, asar qahramoni Salim Sinayning o'tmishi bu uning ildiziga taaluqli shaxslar Bobosi–Adam Aziz, onasi–Amina hamda otasi–Ahmad Sinaylar bilan bog'liq o'tmish zamon esdaliklarini turli adabiy badiiy hikoyalar yordamida (mifologik va badiiy tafakkur) kelajak voqeligining to'lishganligi, ya'ni, kamolot davriga yetgan o'smirning o'tmishni eslashi bu uning bugunini qo'shimcha ravishda to'ldiradi. Tarixiy inversion bosqichlarni ushbu roman doirasida evolyutsiyalasak, butun roman voqealar silsilasi quyidagicha davrlanadi: o'tmish zamon Adam Aziz, bugun davrida Amina va Ahmad Sinaylar; kelajak davrlanishuvida Salim Sinayni joylashtirish mumkin. Aynan o'tmish va hozirgi davrda sodir bo'lgan va sodir bo'layotgan voqealar fikrimizning ayni markazi bo'lmish kelajak uchun, uning rivojlanishi mukammallashishi va izchillashishi pirovardida xizmat qiladi. Shu sababli muallif qahramonimizning bobosi hamda ota-onasi o'tmishini uning kelajagi boyishi hisobiga davrlar inversiyasini qo'llaydi. Kelajakning to'kisligi maqsadida o'tmish va hozir vertikal ko'rinishni afzal ko'radi. Salman Rushdi bosh qahramonning endigina dunyoga kelganligiga qaramasdan sujet rivojini o'tmishga, ya'ni, 32 yil orqaga siljitib, bobosining yoshligidan to'zining kamolotga yetgulik davrigacha bo'lgan voqelar oyna kabi tasvirlanadi. Ushbu tasvirning haqqoniy, ko'rimdor, jozibali, mantiqan bir-biriga bog'liq va mos kelishi uchun tarixiy inversiya, shuningdek, parallel vaqt platformasi katta rol o'ynaydi. Chunki faqatgina inversiyalashuv hisobidan davr almashinishi mumkin.

(The sheet, incidentally, is stained too, with three drops of old, faded redness. As the Quran tells us: Recite, in the name of the Lord thy Creator, who created Man from clots of blood.)

One Kashmiri morning in the early spring of 1915, my grandfather Aadam Aziz hit his nose against a frost-hardened tussock of earth while attempting to pray. Three drops of blood plopped out of his left nostril, hardened instantly in the brittle air and lay before his eyes on the prayer-mat, transformed into rubies. Lurching back until he knelt with his head once more upright, he found that the tears which had sprung to his eyes had solidified, too; and at that moment, as he brushed diamonds contemptuously from his lashes, he resolved never again to kiss earth for any god or man. This decision, however, made a hole in him, a vacancy in a vital inner chamber, leaving him vulnerable to women and history.<sup>2</sup>

Professor Lixachovning vaqt poetikasiga doir fikrlariga tayangan holda, shu narsa ma'lumki, vaqt tasvirlanadi. U tasvir obyekt. U "cho'zilishi" va "yugurishi" mumkin. Bir lahza "to'xtashi" va uzoq vaqt "porlashi", ya'ni davom etishi mumkin.<sup>3</sup> Demak, olimning tasdiqlashiga ko'ra, ma'lum bir badiiy asarda tasvirlanayotgan vaqt, ya'ni voqea muallifning xohishiga ko'ra to'xtatilishi mumkin. Aynan vaqtning shu xususiyati Rushdining ushbu ijodida ham ko'zga ko'rinadi. Aniqrog'i, Salimning tug'ilgan kuni holatidan – bobosining ibodatiga o'tish lahzasida, ijodkor birinchi ish-harakatni to'xtatib, fleshbek yordamida ikkinchi holat – ibodat tasvirini ko'rsata oldi. Voqealar bayoni uning bobosiga ulanib ketadi toki ijodkor qaysi muddatgacha o'sha kun tasvirini bayon etishni istagunicha.

Badiiy adabiyotda vaqt voqea sabab-oqibat yoki psixologik, assotsiativ bog'lanish orqali idrok qilinadi. Badiiy asardagi vaqt nafaqat taqvim, balki voqealar o'zaro bog'liqligidir. Adabiyotning o'ziga xos nisbiylik tamoyili bor. Sujetdagi voqealar bir-biridan oldin va bir-birining ortidan kelib, murakkab ketma-ketlikda birikadi va shu tufayli o'quvchi vaqt haqida maxsus hech narsa aytilmagan bo'lsa ham, badiiy asardagi vaqtni payqab oladi. Badiiy vaqtni o'rganishdagi eng murakkab masalalardan biri bir necha hikoyali asardagi vaqt oqimining birligi masalasidir. Vaqt oqimining, tarixiy zamon oqimining birligini anglash xalq og'zaki ijodi va adabiyotga darrov kelib qolmaydi.

<sup>1</sup> Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. T., Akademiya, 2015, 121 – 122-betlar.

<sup>2</sup> Rushdie Salman. *Midnight's children*. L., Penguin books, 1991, p. 3.

<sup>3</sup> Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. М., "Наука", 1979, с. 210.

Xalq og‘zaki ijodida va adabiyot taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida turli sujetli voqealar har biri o‘ziga xos vaqt qatorida, bir-biridan mustaqil ravishda kechishi mumkin. Vaqt birligining ongi hukmronlik qila boshlagach, bu birlikning buzilishi, turli sujetlarning vaqt farqlari g‘ayritabiiy, mo‘jizaviy narsa sifatida qabul qilina boshlaydi. Bir tomondan, asar vaqti yopiq, o‘z-o‘zidan bo‘lishi mumkin, faqat sujet doirasida sodir bo‘ladi, asardan tashqarida sodir bo‘lgan voqealar bilan, tarixiy vaqt bilan bog‘liq emas. Boshqa tomondan, asarning vaqti aniq belgilangan tarixiy davr fonida rivojlanib, kengroq vaqt oqimiga ki-ritilishi mumkin. Asarning ochiq vaqti, uni voqelikdan ajratib turadigan aniq ramkani istisno qilmaydi, uning sujeti ishidan tashqarida bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladigan boshqa hodisalarning mavjudligini ham nazarda tutadi.<sup>1</sup> Aynan, ushbu holatda vaqt poetikasining o‘ziga xos va betakror, g‘ayrioddiy yana bir xususiyatiga yuzlanish mumkin. Ya‘ni, Salimning tug‘ilish kuni vaqti to‘xtatilib, ushbu holatda vaqt gorizontal shaklda hozirdan kelajakka sari ildamlamasdan, uning vertikal (yuqori, quyi) pozitsiyada yo‘nalishni burishi va 1 kunlik chaqaloqning bir soniya ham o‘smasligini ta‘minlab, uning bobosi, yoshlik davri, doktorlik bilan shug‘ullangani, uylanishi, buvisining ana‘na va udumlarga sodiqligi, ularning 5 farzandlarining o‘sib-ulg‘ayishi va ta‘lim olishlari, onasi – Mumtoz, uning o‘smirlik davrida Nodirxon bilan bog‘liq boshdan kechirgan qiyinchiliklari, Xolasi zumradning zulfiqor bilan turmushga chiqishi, onasining Ahmad ismli savdogar bilan topishishi va turmushga chiqib Agraga ko‘chishi, ismini Aminaga o‘zgartirishi va homilador bo‘lishi, juda boy ingliz Metvolddan uy sotib olishlari va tug‘ish kunigacha ushbu voqealar sodir bo‘ladi. Aynan 15 avgust kuni esa to‘xtagan voqealar davom etishni boshlaydi, va yagona vaqt birligining ongi asosida birlashib, davom etishni boshlaydi. Lekin shu vaqtgacha bo‘lib o‘tgan voqealar turli sujet foni asosida hikoyalar sodir bo‘ldi. Umumiy voqea vaqti yopilib, turli sujetlararo voqealar davomiyligi saqlandi, xolos.

The exordium, spoken with hands joined before him like a book, comforted a part of him, made another, larger part feel uneasy – “...Praise be to Allah, Lord of the Creation...” –but now Heidelberg invaded his head; here was Ingrid, briefly his Ingrid, her face scorning him for this Mecca-turned parroting; here, their friends Oskar and Ilse Lubin the anarchists, mocking his prayer with their anti-ideologies - ‘... The Compassionate, the Merciful, King of the Last Judgment!...’ – Heidelberg, in which, along with medicine and politics, he learned that India - like radium – had been ‘discovered’ by the Europeans; even Oskar was filled with admiration for Vasco da Gama, and this was what finally separated Aadam Aziz from his friends, this belief of theirs that he was somehow the invention of their ancestors – “... You alone we worship, and to You alone we pray for help...” –so here he was, despite their presence in his head, attempting to re-unite himself with an earlier self which ignored their influence but knew everything it ought to have known, about submission for example, about what he was doing now, as his hands, guided by old memories, fluttered upwards, thumbs pressed to ears, fingers spread, as he sank to his knees – ...<sup>2</sup>

Ushbu parchada tarixiy inversiyaning ong oqimini hikoya qilish texnikasi ichki monolog va shaxsiy fikrlari orqali tasvirlangan bo‘lib, bunda Adam Aziz ibodat vaqtida o‘zining Germaniyadagi do‘stlarini xotirlashi orqali ularning fikrlari hamda uning ibodati qismlari chiziqli vaqt hissining buzilishi holatini keltirib chiqaradi va bu orqali yozuvchi vaqtinchalik parchalangan fragmentlarning hosil bo‘lishiga erishadi. Shu o‘rinda, muallif xarakterning bir vaqt oralig‘ida ham Hindistonda, ham Germaniyada bo‘la olishini ta‘minlay oldi. Uning jussasi hind zaminida turib ibodat qilsa-da, aqlan Germaniyadagi bir necha muddat oldingi vaqt zonasida turib voqelarni boshdan kechira olishi haqiqiy retrospeksiya usulining qo‘llanilishiga misol bo‘la oladi. Ya‘ni, kitobxon ayni vaziyatda Adamning xudoga sig‘inishini, shuningdek, uning miyasi do‘stlari Hidelberg, Ingrid, Oskar, Lyubinlarning bemani masxarabozliklari hamda Hindistonning ularning otabobolari tomonidan kashf qilinishligi fikrlaridan voqif bo‘lishini kuzatishimiz mumkin.

**Shamiyeva Oybahor Ravshanovna (Navoiy davlat Konchilik va texnologiyalar universiteti  
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi;  
e-mail:oshamiyeva@gmail.com)**

### **SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA RAHBARLIK VA BOSHQARUV MUAMMOLARINING TALQINI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada hayotning muhim va zarur o‘chog‘i bo‘lmish rahbarlik muammolariga Sharq mutafakkirlarining ilmiy risolalari va qimmatli asarlarida katta e‘tibor berilganligi tahlil etilgan va bu manbalarni o‘rganish hozirgi zamon ilm-fanida va rahbar kadrlarni tayyorlashda tarbiyaviy va amaliy ahamiyati ochib berilgan.*

<sup>1</sup> Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. М., “Наука”, 1979, с. 214.

<sup>2</sup> Rushdie Salman. Midnight’s children. L., “Penguin books”, 1991, p. 4.

# “ILM SARCHASHMALARI”

Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali

Muharrir **Ro‘zimboy Yo‘ldoshev**  
Texnik muharrir **Sherali Yo‘ldoshev**  
Musahhihlar: **Туримова Тамара,**  
**Aybek Kalandarov**  
Ushbu songa mas’ul **Dilshod G‘ayipov**

Terishga berildi: 19.12.2023  
Bosishga ruxsat etildi: 29.12.2023.  
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.  
Rizograf bosma usuli. Tayms garniturası.  
Adadi 125. Bahosi kelishilgan narxda.  
Buyurtma №. 53  
Hisob-nashriyot tabag‘i 25  
Shartli bosma tabag‘i 23  
UrDU matbaa bo‘limida chop etildi.

UrDU matbaa bo‘limi matbaa faoliyatini boshlagani  
haqida vakolatli davlat organini xabardor qilish to‘g‘risidagi  
Tasdiqnoma (№3802-835f-ad22-c709-fbd1-1129-1986)  
asosida faoliyat yuritadi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.  
Telefon/faks: (0362)-224-66-01;  
e-mail: [ilmsarchashmalari@umail.uz](mailto:ilmsarchashmalari@umail.uz)  
[ilmsarchashmalari@mail.ru](mailto:ilmsarchashmalari@mail.ru)  
Veb-sayt: [www.ilmsarchashmalari.uz](http://www.ilmsarchashmalari.uz)  
Telegram: <https://t.me/ilmsarchashmalari>